O‘ZBEK TILIDAGI TURG‘UN O‘XSHATISHLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI (KIYIM-KECHAK BILAN BOG‘LIQ FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR MISOLIDA)

Amirova Muxlisa Jamshiddinovna

Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi kiyim-kechak nomlari bilan bog‘liq turg‘un o‘xshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kiyim-kechak komponenti ishtirok etgan frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari, obrazlilik darajasi va milliy-madaniy mazmuni o‘rganiladi. Shuningdek, mazkur birliklarda xalqning urf-odatlari, ijtimoiy qarashlari, axloqiy mezonlari hamda olamni idrok etish usullarining ifodalanishiga e’tibor qaratiladi. Tadqiqotning maqsadi kiyim-kechak obrazlari orqali shakllangan turg‘un o‘xshatishlarning til va madaniyat munosabatlarini yoritishdan iborat.

Kalit so‘zlar: turg‘un o‘xshatish, frazeologizm, lingvokulturologiya, kiyim-kechak, milliy-madaniy xususiyat, obrazlilik

Abstract. This article analyzes the linguoculturological features of fixed similes related to clothing names in the Uzbek language. The study examines the semantic features, degree of imagery, and national-cultural content of phraseological units involving clothing components. Furthermore, attention is paid to the expression of the people's traditions, social views, moral criteria, and ways of perceiving the world through these units. The purpose of the study is to elucidate the relationship between language and culture through fixed similes formed by clothing imagery.

Keywords: fixed simile, phraseologism, linguoculturology, clothing, national-cultural feature, imagery.

Kirish.

Til insonlarning o‘zaro muloqot vositasi bo‘lish bilan birga, xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy xotirasini saqlovchi muhim hodisadir. Til birliklarida xalqning borliqni idrok etish usuli, narsa-hodisalarga munosabati va ularni

baholash mezonlari o‘z ifodasini topadi. Ayniqsa, turg‘un o‘xshatishlar va frazeologik birliklar milliy tafakkurning obrazli ifodalanishida muhim o‘rin tutadi.

Jamiyat taraqqiyoti, xalqning asrlar davomida shakllangan turmush tarzi, urf-odat va an’analari uning tilida, xususan, frazeologik fondida o‘z aksini topadi. Til millat madaniyati, ma’naviyati va dunyoqarashining ko‘zgusi hisoblanadi. Shu bois zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini, xususan, frazeologizmlar va turg‘un o‘xshatishlarni lingvokulturologik yondashuv asosida tadqiq etish dolbaho masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbek xalqining milliy mentaliteti, estetik qarashlari va madaniy qadriyatlarini o‘rganishda kiyim-kechak nomlari bilan bog‘liq turg‘un o‘xshatishlarning o‘rni beqiyosdir.

O‘zbek tili frazeologik tizimida insonning tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori, ruhiy holati va ijtimoiy mavqeini ifodalovchi birliklar alohida o‘rin tutadi. Ushbu birliklarda kiyim-kechak nomlari nafaqat predmet ma’nosini, balki ramziy va baholovchi mazmunni ham ifodalashi mumkin. Shu jihatdan kiyim-kechak bilan bog‘liq frazeologik birliklarni lingvokulturologik nuqtayi nazardan o‘rganish til birliklarida aks etgan milliy-madaniy qarashlarni aniqlashga yordam beradi.

O‘zbek milliy liboslari nomlaridan kelib chiqqan frazeologik va paremiologik birliklar to‘g‘risida ba’zi bir ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan A.M.Yusupova (O‘zMU) o‘zining “Kiyim-kechak realiya ishtirokidagi matn persepsiyasi” nomli ilmiy maqolasida “to‘n, do‘ppi, belbog‘, salla” so‘zlari asosida hosil qilingan “do‘ppisini osmonga otmoq”, “sallani ol desa, kallani oladi”, “Oq ko‘ngilning oti ham ozmas, to‘ni ham to‘zmas”, “Bosh yorilsa – do‘ppi ostida” (invarianti: “Bosh yorilsa – bo‘rk ichida”), “Bo‘zchi belbog‘ga yolchimas, kulol mondiga” kabi ibora va maqollarga izoh berib, tasniflagan.

Asosiy qism

O‘zbek tiling frazeologik fondi juda katta qismni tashkil qiladi. Ular xalqimizning madaniyati hamda turmush tarzi haqida qimmatli ma’lumotlarni beruvchi manbayidir. Frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o‘z davrining mavkurasini bilvosita aks ettiradi.

O'zbek xalqi kiyinish madaniyati nuqtayi nazaridan ham dunyodagi xalqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari ota-bobolarimiz egniga yaktak-lozim, oyoqqa kovush-maxsi, etik, boshga shabpo'sh, do'ppi, telpak, ustga chopon, to'n kiyib. belga belbog', qars boylashgan. Shuning uchun ham xalqimizda erkak kishilikni ramziy ifodalash xususida "belingda belbog'ing bormi?" degan ibora qolgan. Har bir xalqning o'zrga xos kiyim-kechak nomlari va realiyalari ham milliy frazeologizmlarni hosil qilishda asos vazifasini o'taydi. Xuddi shunday maqollarni tahliliga sizlarning e’tiboringizni qaratmoqchiman.

“Do‘ppi” komponenti nafaqat o‘zbek millatining balki ko‘plab Markaziy Osiyo xalqlarining ramziy ma’noga ega bosh kiyimdir. Hatto boshimizdagi do‘ppining shakli ham qay millat vakili ekanligidan dalolat beradi. O‘zbek millati vakillarining ham do‘ppilari hudud jihatidan farqlanadi. Masalan, bahmal do‘ppi, chust do‘ppi, zar do‘ppi, iroqi do‘ppi kabilar. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da unga shunday ta’rif berilgan: “ Do‘ppi – avra-astarli, ko‘pincha qavima, pilta urilgan , tepa, kizak va jiyakdan tarkib topadigan guldor yoki gulsiz, to‘garak yoki to‘rtburchak shakldagi bosh kiyim”.

O‘zbek frazelogik fondida do‘ppi bilan bog‘liq quyidagi iboralarni uchratish mumkin:

Do‘ppisi tor kelmoq- biror vaziyatda o‘zini noqulay his qilmoq, siqilmoq, tang ahvolda qolmoq. torlik jismoniy noqulaylikni ifodalaydi. Ushbu holat ruhiy siqilish va qiyin vaziyatga tushish bilan qiyoslanadi.

Do‘ppini ol desa, boshini olmoq- Biror ishni lozim bo'lganidan ham o'tkazib, ortiq darajada va qo'pol qilib bajarmoq. Iborada do‘ppi va bosh o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikdan foydalanilgan. Do‘ppini olish oddiy harakat bo‘lsa, boshni olish haddan tashqari keskin va nomutanosib harakatni anglatadi.

Do‘ppisini osmonga otmoq- juda xursand bo‘lmoq, quvonchini yashira olmaslik do‘ppini osmonga otish kuchli quvonchning tashqi ifodasi sifatida tasavvur qilinadi. Osmonga otish harakati inson hissiyotining jo‘shqinligini ko‘rsatadi

Birovning do‘ppisini boshqaga kiygizmoq- o‘z aybi yoki mas’uliyatini boshqa kishining zimmasiga yuklamoq. Do‘ppi shaxs bilan bog‘liq buyum sifatida talqin qilinadi.

Birovning do‘ppisini boshqaga kiygizish orqali bir kishiga tegishli ayb yoki mas’uliyatni boshqa kishiga yuklash holati obrazli ifodalanadi.

“To‘n” komponenti ham o‘zbek millatining milliy liboslaridan biri hisoblanadi. U chopondan ancha hashamdorligi hamda yuqori tabaqa vakillariga xosligi bilan farqlanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da unga shunday ta’rif berilgan: “Oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyim; chopon”

O‘zbek frazelogizmlarda “to‘n” komponenti bilan bog‘liq iboralarni uchratishimiz mumkin:

Gapga to‘n kiygizmoq-gapni juda boplab, qoyilmaqom qilib gapirmoq. “To‘n” kiyim sifatida tashqi ko‘rinishni o‘zgartiradi. “Gapga to‘n kiygizmoq” obrazida esa gapning tashqi ifodasi yoki talqiniga yangi tus berish nazarda tutilishi mumkin.

To‘nini teskari kiymoq- jahli chiqmoq; qaysarlik qilmoq. O‘zbek madaniyatida kiyimni to‘g‘ri kiyish tartib va me’yor bilan bog‘lanadi. To‘nni teskari kiyish esa odatiy holatning buzilishini obrazli ifodalaydi. Shu orqali kishining qaysarligi yoki jahl holatida ekanligi tasvirlanadi.

To‘n bichmoq- biror vaziyatni bilmay, ko‘rmay turib xulosa chiqarmoq. “To‘n” o‘zbek xalqining an’anaviy kiyimlaridan biri bo‘lib, milliy turmush tarzi va kiyinish madaniyatini aks ettiradi. “Bichmoq” harakati esa biror narsaga dastlabki shakl berish jarayonini anglatadi. Ko‘chma qo‘llanishda bu obraz inson haqida muayyan tasavvur yoki baho shakllantirish bilan bog‘lanadi.

Bundan tashqari “kavush”, “belbog‘”, “paytava” kabi komponentlar, shu bilan birga kiyim-kechak qismlari sirasida “etak”, “yeng”, “yoqa” komponentlari ham iboralar tarkibida uchraydi.

Kavushini to‘g‘irlab qo‘ymoq - haydab yubormoq. Ushbu ibora o‘zbek xalqining milliy-madaniy dunyoqarashi, turmush tarzi va urf-odatlari bilan bog‘liq. “Kavush” — oyoqqa kiyiladigan an’anaviy poyabzal turi bo‘lib, xalqning kundalik hayotida muhim o‘rin tutgan. Kavushning “to‘g‘rilanishi” harakati iborada ramziy ma’no kasb etadi. Ko‘chma ma’noda bu harakat kishining o‘zidan uzoqlashtirish tushunchalarini ifodalaydi.

Belida belbog‘i bor –mard, jasur, qo‘rqmas erkaklarga nisbatan. O‘zbek xalqining an’anaviy kiyinish madaniyatida belbog‘ muhim o‘rin tutgan. U nafaqat kiyimni tutib turuvchi vosita, balki ayrim vaziyatlarda insonning ijtimoiy mavqeyi, yoshi, kasbi va milliy o‘zligini ifodalovchi madaniy belgi ham bo‘lgan. Shu sababli “belida belbog‘i bor” birikmasida belbog‘ oddiy kiyim elementi bo‘lishdan tashqari, ramziy-madaniy belgi sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Milliy sport turimiz kurashda ham sportchilarning darajasi belbog‘ning rangi bilan o‘lchanadi.

Paytavasiga qurt tushmoq- xotirjamligi buzilib, bir yerda tinch tura olmaslik, bezovta bo‘lavermoq. Paytava — ilgari oyoqqa o‘raladigan, paypoq o‘rnida ishlatilgan mato bo‘lagi. U o‘zbek xalqining an’anaviy kiyinish madaniyati va kundalik turmushi bilan bog‘liq. Iborada paytava inson tanasiga tegishli maishiy buyum sifatida obraz markaziga chiqadi. “Qurt tushmoq” birikmasi esa ichki bezovtalik, tinimsiz harakat yoki biror narsaga kuchli intilish holatini obrazli tarzda ifodalaydi.

Yeng shimarmoq- Biror ishga chin dildan kirishmoq. Yeng kiyimning qo‘lni qoplab turadigan qismi. “Shimarmoq” esa yengni yuqoriga qayirib, qo‘lni ochish harakatidir. Kundalik turmushda bu harakat qo‘l mehnatini bajarish, kiyimni ishga moslashtirish va harakatga tayyorlanish bilan bog‘liq. O‘zbek xalqining an’anaviy turmush tarzida mehnatsevarlik, tirishqoqlik va ishga mas’uliyat bilan yondashish muhim qadriyatlar hisoblangan. Shu sababli yengni shimarish jismoniy harakatdan ramziy ma’no kasb etib, mehnatga tayyorlik va faol harakatni boshlash tushunchalarini ifodalaydi.

Bir yoqadan bosh chiqarmoq – Ahil va inoq. Iboraning tarkibidagi “yoqa” va “bosh” so‘zlari inson kiyimi va tana a’zolari bilan bog‘liq. Yoqadan bosh chiqarish tasviri ko‘chma ma’noda ko‘pchilikning bir butun bo‘lib harakat qilishi, o‘zaro hamjihatlikni saqlashi tushunchasini yuzaga keltiradi. O‘zbek xalqining milliy-madaniy hayotida bu holat mahalla, qarindosh-urug‘chilik, qo‘ni-qo‘shnichilik, hashar va jamoaviy mehnat an’analari muhim o‘rin egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar ham o‘zida lingvokulturologik xususiyatlarini o‘zida olib yuradi. Ularni tahlil qilish hozirgi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 1978. - 408 б

2.Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. -B.: 90-96

3.Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 2022 – 636 b

4. https://inlibrary.uz/index.php/mlrfear/article/view/5872/6051